



THE EXPRESSION OF NATIONAL SPIRIT AND SPIRITUALITY IN SAID AHMAD'S STORIES AND NOVELS

Lapasova Gozal Unarboy qizi

Tashkent University of Applied Sciences

Department of Primary Education Theory and Methodology

Email: gozallapasova880@gmail.com. Tel: +99893303289

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17491541>

ARTICLE INFO

Received: 25th October 2025

Accepted: 29th October 2025

Online: 30th October 2025

KEYWORDS

"People's Writer of
Uzbekistan," "Ufq" trilogy,
"Qorako'z Majnun", "Cho'l
burguti"

ABSTRACT

Said Ahmad is one of the great writers of Uzbek literature who deeply reflected the national spirit and spirituality. His creative works possess not only literary but also social and moral significance, as they embody the historical experience and cultural heritage of the Uzbek people. This article aims to analyze the life and works of Said Ahmad, as well as how national spirit and spirituality are represented in his writings. The main purpose of the article is to scientifically explore Said Ahmad's life and creative activity, and to examine how national values and spirituality are portrayed in his stories, novels, and dramatic works.

ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ДУХА И ДУХОВНОСТИ В РАССКАЗАХ И РОМАНАХ САИДА АХМАДА

Лапасова Гузаль Унарбаевна

Ташкентский университет прикладных наук

Кафедра теории и методики начального образования

Email: gozallapasova880@gmail.com. Тел: +99893303289

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17491541>

ARTICLE INFO

Received: 25th October 2025

Accepted: 29th October 2025

Online: 30th October 2025

KEYWORDS

«Народный писатель
Узбекистана», трилогия
«Уфк», «Коракоз Мажнун»,
«Чуль бургуту».

ABSTRACT

Саид Ахмад — один из выдающихся писателей узбекской литературы, глубоко отразивший национальный дух и духовность. Его творчество имеет не только литературное, но и важное социальное и нравственное значение, так как в нём воплощены исторический опыт и культурное наследие узбекского народа. Данная статья посвящена анализу жизни и творчества Саида Ахмада, а также исследованию того, как национальный дух и духовные ценности выражены в его произведениях. Цель статьи — научно осветить жизнь и творческую деятельность Саида Ахмада, а также проанализировать отражение национальных ценностей и



духовности в его рассказах, романах и
драматургических произведениях.

SAID AHMAD HIKOYA VA ROMANLARIDA MILLIY RUH VA MA'NAVIYAT IFODASI

Lapasova Go'zal Unarboy qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va
metodikasi kafedrası o'qituvchisi

gozallapasova880@gmail.com

+99893303289

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17491541>

ARTICLE INFO

Received: 25th October 2025

Accepted: 29th October 2025

Online: 30th October 2025

KEYWORDS

"O'zbekiston xalq
yozuvchisi", "Ufq" trilogiyasi,
"Qorako'z Majnun", "Cho'l
burguti"

ABSTRACT

Said Ahmad o'zbek adabiyotida milliy ruh va ma'naviyatni chuqur aks ettirgan buyuk yozuvchilardan biridir. Uning ijodi nafaqat adabiy, balki ijtimoiy va ma'naviy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'zbek xalqining tarixiy tajribasi va madaniy merosini o'zida aks ettiradi. Ushbu maqola, Said Ahmad hayoti va ijodini, shuningdek, uning asarlarida milliy ruh va ma'naviyatni qanday ifodalanganini tahlil qilishga qaratilgan. Maqolaning maqsadi – Said Ahmadning hayoti va ijodiy faoliyatini ilmiy asosda yoritish, uning hikoya, roman, va dramaturgiya asarlarida milliy qadriyat va ma'naviyatni tahlil qilishdan iborat.

O'zbek adabiyotida alohida o'ringa ega bo'lgan, hajv taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelgan, hajviyalar, intermediyalar, komediyalar yozib uni rivojlantirgan O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston Xalq yozuvchisi Said Ahmad Husanxo'jayev 1920-yilning 10-iyunida Toshkent shahrining Samarqand darvoza mahallasida tug'ilgan. Uning bolaligi, Abdulla Qahhor, Oybek, G'afur G'ulom singari adiblar davrasida o'tdi. Tabiatan qiziquvchan, tinib-tinchimas Said Ahmad adabiyotga kirib kelguncha juda ko'p sohalarda o'zini sinab ko'rdi: agitplakatlar yozdi, artist bo'lishga urinib ko'rdi, doktorlik maktabida o'qidi, qurilish texnikumida tahsil oldi, rassomlik maktabiga qatnadi, mashhur fotochi Pensonga shogird tushdi, gazetalarga xabarlar yozdi. U Nizomiy nomidagi pedinstitutda bir muddat o'qigach, 1941-yilda „Mushtum“ jurnalida ishladi. 1942-1943-yillarda respublika radiosida, 1943-1947-yillarda „Qizil O'zbekiston“ gazetasida, 1948-



1950-yillarda „Sharq yulduzi“ jurnalida mehnat qildi. 50-yillar boshida millatchi sifatida bir necha yil qamalib ham chiqdi. Milliy istiqlol yo‘lidagi xizmatlari uchun Said Ahmad 1999-yilda O‘zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo‘lgan. Adib „O‘zbekiston xalq yozuvchisi“ unvoniga, Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan, „Buyuk xizmatlari uchun“, „Do‘stlik“ ordenlari bilan mukofotlangan. U rang-barang hikoyalari, realistik qissalari va romanlari, takrorlanmas esselari, xushchaqchaq komediyalari bilan XX-XXI asr o‘zbek adabiyotida munosib o‘rin egallagan. Said Ahmad ana shunday janrdagi asarlari bilan xalqimiz ma’naviy dunyosini shakllantirishga samarali hissa qo‘shgan adibdir. Uning asarlarida xalqimizning mardonavor mehnati, ona-zaminimizning go‘zal manzarasi har doim ulug‘lanadi. Said Ahmad o‘z asarlarida milliy ruh, ma’naviy qadriyatlar va xalqona hayot falsafasini chuqur ifoda etgan. Uning ijodi o‘zbek xalqining ruhiy olamini, milliy an‘analarini, insoniy fazilatlarni badiiy yoritishga bag‘ishlangan. Yozuvchi hikoya va romanlarida hayotning eng oddiy voqealari orqali inson qalbining go‘zalligi, vijdon, sadoqat, mehr va e‘tiqod masalalarini ochib beradi. Said Ahmadning ijodiy yo‘lida asosiy e‘tibor milliy ruh va ma’naviyatni aks ettirishga qaratilgan. Uning asarlarida qahramonlarning ichki dunyosi, insoniy qadriyatlar, oila, sadoqat, mehr-muhabbat, adolat va vatanparvarlik kabi mavzular markaziy o‘rinni egallaydi. Ijodkor o‘z asarlarida milliy qadriyat va urf-odatlarini realistik obrazlar orqali o‘quvchiga yetkazishga intiladi. Uning asarlarida asosan quyidagi mavzular ko‘tariladi: Milliy ruh – o‘zbek xalqining tarixiy tajribasi, urf-odatlari, an‘analari va madaniyati; Ma’naviyat va axloqiy qadriyatlar – adolat, sadoqat, mehr-muhabbat, insoniylik;

Said Ahmad asarlarida milliylik bilan zamonaviylik uyg‘un tarzda ifodalangan. U o‘z davrining ijtimoiy muammolarini xalq tili, xalqona obrazlar va o‘ziga xos kinoya orqali yoritadi. Yozuvchi o‘zbek xalqining milliy g‘ururi, e‘tiqodi, or-nomusini asrab qolish zarurligini ta’kidlaydi. „Qorako‘z Majnun“ hikoyasida sadoqat, sevgi va milliy qadriyatlar o‘zaro chatishgan. Bu asarda milliy ruh inson qalbining eng nozik his-tuyg‘ulari orqali ifodalanadi. Ushbu hikoya o‘zbek xalqining azaliy sevgi, sadoqat va fidoyilik tushunchalarini zamonaviy badiiy yondashuv bilan uyg‘unlashtirgan holda, o‘quvchida chuqur ta’sir qoldiradi. Asarning asosiy mavzusi – inson qalbining azaldan orzu qilgan, lekin o‘ta murakkab va hayot sinovlardan o‘tgan muhabbatidir. Shuningdek, „Qorako‘z Majnun“ asarida o‘zbek xalqining milliy an‘analari, urf-odatlari va tarixiy qadriyatlari ham chuqur aks etgan. Hikoya orqali muallif milliy ruhiyatni, insoniylik va mehr-muhabbat tamoyillarini o‘quvchiga etkazishga harakat qiladi. Ushbu asar nafaqat adabiy, balki ma’naviy jihatdan ham o‘zbek adabiyoti va madaniyatining boy merosi sifatida qaraladi. Bugungi kunda „Qorako‘z Majnun“ hikoyasi yosh avlod uchun nafaqat sevgi haqida dars, balki insoniylik, fidoyilik va sadoqatning chinakam namunasini anglashda muhim manba bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Said Ahmadning „Qora Ko‘z Majnun“ hikoyasida ona – Saodat ayaning baxtsiz farzandi Qumri bilan bo‘lish istagi chuqur va ta’sirli tarzda tasvirlangan. Asarda ona mehrining eng oliy ko‘rinishi sifatida farzandining baxtsizligiga qaramay, uning yonida bo‘lish, uni qo‘llab-quvvatlash istagi ko‘rsatiladi. Saodat aya uchun farzandining dardini birga ko‘tarish va uni yolg‘iz qoldirmaslik, qanday bo‘lmasin, uning yonida bo‘lish eng katta baxt hisoblanadi. Hikoyada Saodat ayaning o‘g‘li Bo‘rixonning dindan chiqishi muhim voqealardan biridir. Bu hodisa nafaqat oilaning ruhiy holatiga,



balki butun voqealar rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bo'rixonning dindan chiqishi, uning ichki dunyosidagi adashish va qarama-qarshiliklarni ifodalaydi. Bu voqea orqali muallif jamiyatdagi diniy qadriyatlarning inson hayotidagi o'rni, shuningdek, oilaviy qadriyatlar bilan diniy e'tiqodlarning qanday murakkab bog'lanishi haqida fikr yuritadi. Bo'rixonning bu yo'ldan chiqishi Saodat ayaga katta qayg'u va azob keltiradi, ammo shu bilan birga bu sinov ularni yanada bardoshli, kuchli qilishga undaydi. Hikoyada dindan chiqish faqat shaxsiy tanlov emas, balki jamiyat va oila oldidagi murakkab muammolarni ko'rsatadigan voqea sifatida ham tasvirlab berilgan. Said Ahmad bu orqali zamonaviy hayotning murakkabliklarini, inson ruhining sinovlarini chuqur badiiy ifoda etadi. Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasida it obrazining o'rni katta va ma'nodordir. Kuchuk nafaqat oilaning sodiq do'sti, balki uning har bir a'zosiga mehr-muhabbat ko'rsatadigan, ularga sodiq va ishonchli hamrohdur. Xususan, Saodat aya kuchukka o'zgacha mehr bilan qaraydi. U kuchukni oddiy hayvon emas, balki oila farzandlari kabi yaqin va aziz do'sti sifatida qabul qiladi. Saodat ayaning kuchukka bo'lgan munosabati —samimiy mehr va g'amxo'rlik ifodasining yorqin ko'rinishi deyish mumkin.

Said Ahmad asarlari kitobxonni o'ylashga tafakkur qilishga, har bir qahramon xarakterini chuqur tahlil qilishga undaydi. Kitobxon asarni mutolaa qilishni boshlar ekan, shu asar bilan yashashni boshlaydi go'yo. Qahramonlar taqdiri kitobxonni hech bir o'rinda befarq qoldirmaydi. Asarni o'qir ekansiz, ular yig'lagana yig'laysiz, kulganda kulasiz. Shunday asarlaridan yana biri "Ufq" trilogiyasi Said Ahmad ijodining eng yirik namunalaridan biri bo'lib, unda u o'zbek jamiyatining turli qatlamlarini, insoniy qadriyat va muammolarni tasvirlaydi. Trilogiyada quyidagi jihatlar alohida ajralib turadi: 1. Qahramonlar va ichki dunyo – har bir qahramon milliy ruh va ma'naviyatning turli jihatlarini aks ettiradi. Ularning o'zlikni anglash jarayoni va axloqiy tanlovlari o'quvchini chuqur o'ylashga undaydi. 2. Tarixiy va madaniy kontekst – trilogiyada o'zbek xalqining turli davrlardagi turmush tarzi, urf-odat va qadriyatlari tasvirlangan. Bu esa milliy ruhni boy va aniq ifodalaydi. 3. Ma'naviy qadriyatlar – oila, mehr-muhabbat, sadoqat, adolat va vatanparvarlik qahramonlarning hayotida doimiy ravishda namoyon bo'ladi. Trilogiya nafaqat adabiy, balki ma'naviy meros sifatida ham katta ahamiyatga ega. U o'quvchida milliy o'zlikni anglash va qadrlash hissini uyg'otadi. Asar nafaqat yozuvchi ijodida, balki o'zbek adabiyotida yangi janr hisoblanadi. Ijodkor ijodining eng sermahsul davrida yozgan ushbu roman-trilogiyada yozuvchi Ikkinchi jahon urushining olovli yillarida o'zbek dehqonlarining front orqasida ko'rsatgan mehnat qahramonlari haqida hikoya qiladi, urushdan oldingi va keyingi davr muommolari haqida bahs yuritadi. Ushbu romandaxalqimiz hayotining kichik;

biroq mazmun mohiyati jihatdan juda dolzarb davriaksettirilgan. Chunki xalqimiz urush arafasidagi, Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi yillarda mislsiz fidoyilik, qahramonliklar ko'rsatadi. Uzunligi 270 km bo'lgan Katta Farg'ona kanalining qo'l kuchi bilan 45 kunda qazib bitkazilishi misli ko'rilgan jasorat, har qanday jahon rekordini ortda qoldirar edi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, kanal qazishda 160 ming kishi qatnashgan, kanal tassasida 17,8 million metr kub tuproq chiqarilgan, shundan faqatgina 1,7 million metr kub tuproq mexanizmlar yordamida qazilgan. Urush yillarida xalqimizning front va front ortidagi og'ir mehnati, urushdan keyingi tiklanish davridagi chekkan zahmatlarining



har bir kuni jasorat edi. Bu ulkan ishlarning ortida qo'li qadoq jonli odamlar, ularning murakkabliklar to'la suronli taqdiri, orzu-amonlari bor edi. Said Ahmad xuddi shu fidoiy insonlar hayotini, kechinmalarini qalamga olgan, ular haqida bir emas uchta jozibali, lirik bo'yoqlarga boy, hayajonli kitob bitgan. Ularni jamlab, "Ufq" deb nomlagan. Darhaqiqat, roman uch kata davrni o'z ichiga olgani uchun uni roman-trilogiya deb aytamiz. Asarning dastlabki kitobi "Qirq besh kun", ikkinchi kitobi "Hijron kunlarida", uchinchi kitobi esa "Ufq bo'sag'asida" deb nomlangan. "Ufq" romanida bayon etilgan voqealar zamirida tinchlik, urush, mardlik, sadoqat, farzandlar tarbiyasi mavzulari mujassam. Bu asar bugun ham kitobxonlar orasida qo'lma-qo'l. Kitobxon mutolaa davomida nafaqat jonli tasvirlar orqali tarixiy ma'lumotlar bilan tanishadi, balki hayot mashaqqatlaridan saboq chiqarishga, insoniylik va muhabbat aynan qiyinchiliklar ta'sirida toblanishiga amin bo'ladi. Yozuvchining romanlari, ayniqsa "Ufq" trilogiyasi va "Cho'l burguti", inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni milliy va ma'naviy qadriyatlar asosida ko'rsatadi. "Ufq" asarida xalqning irodasi, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ezgulik va adolat g'oyalari asosiy o'rinni egallaydi. Asardagi obrazlar — odamlarga ishonch, fidoyilik va mehnat orqali jamiyatni o'zgartirish g'oyasini tashiydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Said Ahmad o'z ijodida milliy ruh va ma'naviyatni chuqur ifodalagan yozuvchilardan biridir. Uning asarlarida qahramonlarning ichki dunyosi, axloqiy qadriyatlar, oila va jamiyat bilan bog'liq masalalar doimiy ravishda yoritilgan. Said Ahmad ijodi nafaqat adabiy, balki ijtimoiy va ma'naviy meros sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, adib asarlarini o'rganish, asarlari tashigan g'oyani badiiy tahlil qilish bugungi kunda ham dolzarblik kasb etib kelmoqda. Said Ahmad o'z asarlarida insoniy fazilatlar — halollik, mehr-oqibat, sadoqat, vatanparvarlik, adolat kabi qadriyatlarni yoritgan. Bugungi kunda yosh avlodni ma'naviy barkamollikka yetaklashda bu g'oyalar nihoyatda muhimdir. Uning asarlari o'quvchida milliy o'zlikni anglash, qadrlash va rivojlantirish kabi his-tuyg'ularni uyg'otadi.

References:

1. Said Ahmad. "Ufq" trilogiyasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1981.
2. Said Ahmad. "Qorako'z majnun". – Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2008. 45- b.
3. Said Ahmad. "Cho'l burguti". – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1986.
4. Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim (adabiy o'ylar, xotiralar va esselar). To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: Sano-standart, 2015. 352-b
5. O'zbekiston adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2000.